

DYUI VA XU SHI PRAGMATIZM FALSAFASINING UMUMIYLIGI VA O'ZIGA XOSLIGI

Sulaymonov Zufarali Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi bitiruvchi magistranti

email: zufaralisulaymonov@gmail.com

tel: +998993022982

ANNOTATSIYA

Pragmatizm ontologiyada an'anaviy metafizikani rad etadi va reallik mavjudligi subyektdan farq qiluvchi transsensual mohiyat emas, balki subyekt ijodiy faoliyatning belgisi bilan ifodalangan insonparvarlashgan reallik ekanligini taxmin qiladi. Bu nuqtayi nazar bilish obyektining ta'rifi bilan cheklanadi. Pragmatizmga ko'ra, "bilishning obyekti – bu tafakkuridan kelib chiqadigan narsa emas, balki tafakkurda mavjud bo'lgan so'ngi nuqtadir; u tadqiqot jarayoni va fikrlar mazmunini isbotlash mahsulidir"¹. Bilish nuqtayi nazaridan, bilish mavzusi boshlang'ich deb hisoblanishi qiyin. Faqat boshlang'ich olam haqiqiy olamga aylanganda u reallikning kognitiv obyekti bo'ladi va haqiqiy olam umumlashtirilgan kognitiv jarayon orqali amalga oshiriliadi. Pragmitizm bilish obyekti tadqiqot boshlanishidan oldin mavjud emas deb hisoblaydi va mazkur nuqtada bu aniq ko'rindi.

Kalit so'zlar: Obyekt, subyekt, tajriba, bilish, mulohaza, fikrlash, empirizm, haqiqat, dao konsepsiysi.

АННОТАЦИЯ

Прагматизм отвергает традиционную метафизику в онтологии и предполагает, что существование реальности-это не трансцендентальная сущность, отличающаяся от субъекта, а гуманизированная реальность, в которой субъект представлен признаком творческой деятельности. Эта точка зрения ограничивается определением объекта познания. Согласно прагматизму," объект познания – это не то, что вытекает из мышления, а конечная точка, которая существует в мышлении; это продукт процесса исследования и доказательства содержания мыслей". С точки зрения точки зрения, предмет познания трудно считать исходным. Только тогда, когда первоначальная Вселенная становится реальной, она становится познавательным объектом реальности, и реальная Вселенная может быть реализована посредством обобщенного познавательного процесса.

¹ Dewey. J. Essays in Experimental Logic. – California: Good Press. 1916. – P. 36.

Прагматизм считает, что объект познания не существует до начала исследования, и на данный момент это очевидно.

Ключевые слова: объект, субъект, опыт, познание, рассуждение, рассуждение, эмпиризм, истинна, понятие Дао.

ABSTRACT

Pragmatism rejects traditional metaphysics in ontology and assumes that the existence of reality is not a transcendental essence different from the subject, but a humanized reality, represented by a sign of the subject's creative activity. This point of view is limited by the definition of the object of cognition. According to pragmatism, "the object of knowledge is not what comes from thought, but the last point that exists in thought; it is the product of the research process and the proof of the content of thoughts." From the point of view of cognition, the subject of cognition is difficult to consider elementary. Only when the initial universe becomes the real world will it become a cognitive object of reality, and the real world is realized through a generalized cognitive process. Pragmatism believes that the object of cognition does not exist before the start of the study, and at this point it is clearly visible.

Keywords: object, subject, experience, cognition, reasoning, thinking, empiricism, reality, concept of dao.

KIRISH

Boshlang‘ich olamning haqiqiy olamga aylanishini tasdiqlash subyektiv kognitiv faoliyat bilan bog‘liq va tushunish obyekti bo‘lgan faktik doira subyektning tuzilmasi sifatida to‘liq namoyon bo‘lishini anglatmaydi. Umuman olganda, boshlang‘ich olamning haqiqiy olamga aylanishi – bu bir (the given) tartibdan kelib chiqadigan narsa (uning mantiqiy shakli tushunchasida, kategoriyada va boshqalarda ifodalanadi), u borliqni boshqaradi, shunday qilib, bilim doirasiga kirib bilsa bo‘ladigan obyektga aylanadi. Bu yerda kognitiv faoliyatning roli asosan obyektning ichki tabiatini yoki qonunini yo‘q qilish yoki zaiflashtirish emas, balki obyektni subyektga bog‘lash usulini o‘zgartirishdan iborat. Obyektiv qoida sifatida bunday ichki mohiyat va qonun to‘laqonli (subyektga tegishli emas) mohiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich olamni haqiqiy olamga aylantirish jarayoni mantiqan ikki tomonlama ma’noga ega: bu konseptual shakldan tashqi obyektga (tushuncha, standart borliqning kategoriyasi nuqtayi nazardan) o‘tish bo‘lib, real obyektlardan konseptual shakkarga o‘tishda ifodalanadi; ikkinchisi faqat borliq tartibini tashkil etishga taaluqli bo‘lmasdan, balki obyektning to‘laqonli mohiyati keyingi talablarini

tushunishdan iborat. Keyingi ifoda pragmatizm e'tiboridan chetda qoladi. U intelektual obyektni subyektning tadqiqot faoliyati mahsuli deb belgilaganida yuqorida ko'rsatilgan jarayonning avvalgi jihatini namoyon etadi.

Pragmatizmda bilim (mulohaza, tajriba va hokazo) asosan subyekt amaliyoti bilan uyg'unlikda bilish obyektning shakllanishi uchun sharoit hisoblanadi: "bilim (knowing) o'z ma'nosida faoliyat (doing) ning aynan o'zidir"². Metafizikani rad etadigan transendent mohiyatga muvofiq pragmatizm metafizik spekulyatsiyalarga qarshi turishga intilib bilim va amaliyotni bitta qilib birlashtiradi. Pragmatizmga ko'ra, an'anaviy falsafaning jiddiy kamchiliklaridan biri shundaki, u shunchaki mavhum tavsif va reallik talqiniga to'xtaladi, xolos. Bu talqin va subyektning atrof muhitni o'zgartirish bo'yicha harakatlari har doim bir-biridan uzoqda. Pragmatizm uchun bilishning asl maqsadi aynan quyidagidan iborat: "fikrlashning bor vazifasi xulq-atvor odatlarini qaror toptirishdan iborat. Fikrlash bilan bog'liq, ammo uning maqsadi bilan hech qanday aloqasi bo'lмаган har qanday narsa – bu fikrlashning qismlari emas, balki tashvishidir", "turli ishonchlar ular keltirib chiqargan turli harakatlarga bog'liq ravishda farqlanadi"³. Shunday qilib, bilim xulq-atvorga murojaat qilishi, shuningdek, tegishli ravishda xulq-atvorning ahamiyatiga urg'u berishi kerakligi ta'kidlanadi, lekin bunday g'oyalar g'arb falsafasida kamdan-kam uchraydi. Ushbu xususiyat tufayli ko'plab faylasuflar pragmatizmni "xulq-atvor falsafasi" deb hisoblashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nazariy jihatdan, xulq-atvorni bilimning yakuniy maqsadi deb hisoblash haqiqatan, bir tomonidan, bilim va xulq-atvor birligini qayd etishni anglatadi. Biroq pragmatizm xulq-atvor bilan bog'liq bo'lмаган hamma narsaga so'zsiz bilimning boshqa og'ir ahvolga olib boruvchi tashvishi sifatida qaraydi. Bu, ayniqsa, Dyuining quyidagi dalilida yaqqol seziladi: "Tajriba – bu, birinchi navbatda, bilim emas, balki harakat va uqubatlar usulidir"⁴. Bilish shakli sifatida tajriba subyektiv amaliyot jarayonida yuzaga keladi va rivojlanadi. Ammo amaliyotda u vositachi sifatida obyekt bilan kognitiv munosabatga ega va obyektning tarkibiy qismi sifatida uning obyektiv tavsiflariga asoslangan. Bilish nazariyasidagi ushbu tarkibiy qism bilishni ifodalaydi. Pragmatizm tajribani harakat va uqubatlarga nisbat beradi, bu esa bilim va harakat o'rtasidagi aloqa o'rmini bilim va obyekt o'rtasidagi kognitiv munosabatlar

² Dewey. J. Essays in Experimental Logic. – California: Good Press. 1916. – P. 331.

³ Pierce.C.S. Selected Writings: Values in A Universe of Chance. Mass market paperback 1 january 1958. – P.120-121.

⁴ Dewey. J., Moore. A.W. et al. Creative Intelligence: Essays in the Pragmatic Attitude California. California University Press 1917. – P.7.

egallashini anglatadi; xulq-atvor endilikda obyektni biluvchi muhit hisoblamaydi, aksincha, o‘zi bilish faoliyatini yuvib ketadi. Bu fikrga nazariyaning davomi sifatida qarash mumkin, unga ko‘ra, bilim obyekti subyekt faoliyatida shakllanadi. Obyekt mavhum tarzda subyekt faoliyati mahsuli deb belgilansa, u yan obyektiv qoidalardan olinadi va subyekt faoliyatida g‘oyib bo‘ladi; ushbu shartdan mantiqan bilish (tajriba, fikrlash va hakazo) harakati obyekt mohiyatini obyektiv tushunishning kognitiv mazmuniga ega emasligini keltirib chiqarish mumkin.

G‘arb falsafasi tarixida pragmatizm ko‘pincha empirizm nazariyasiga kiritiladi. Qaysidir ma’noda bu fikr asossiz emas. Biroq ko‘pincha bu kabi shakllarda pragmatizm va an’anaviy empirizm muhim farqlarga ega ekanligi e’tibordan soqit qilinadi. Ushbu jihatga oydinlik kiritish uchun, keling, pragmatizmda hissiyotlarni roli va bahosini ko‘rib chiqaylik; “Hissiyotlarni boy berish – bilish eshiklari uchun joy, ularning olinishi – xulq-atvorni rag‘batlantiruvchi joy. Ko‘rish va eshitish hayvon uchun aslo olamning ahamiyati kam hodisalari haqidagi mazmunsiz axborot emas, balki o‘ziga xos ehtiyojga muvofiq harakat qilishga taklif yoki yo‘l yo‘qdir. Uning hatti-harakatlari yo‘nalishlari o‘ziga xos atrof-muhitga moslashish omilidir. Bu bilimdan emas, balki tabiatan kelib chiqqan. Empiriklar va ratsionalistlarning qabul qilishning aqliy qadriyati haqidagi dalillari befoyda. Hissiyotlar muhokamasi bilimlar sarlavhasi ostida emas, balki rag‘bat va reaksiyalar sarlavhasi ostida kechadi”⁵. Hissiyotlar obyekt va subyektni birlashtiruvchi bevosita ko‘prik sifatida obyekt haqidagi eng dastlabki ma’lumotni taqdim etadi. Tajriba ko‘plab ma’nolarni qamrab oladi (u nazariy bilimlarni bilishning tegishli shakliga ishora qilishi hamda keng ma’noda kuzatish va tajriba kabi bilishga doir harakatlarni qamrab olishi mumkin) deb uni xulq-atvorga tenglashtirganimizda kognitiv ma’noning yo‘qolishi yaqqol emas, qaysidir darajada yashirindir. Bu holda bilish eshiklari kabi hissiyotlarning rad etilishi uni xulq-atvor rag‘bati va vositasida aks ettiradi, u subyektning obyektni anglashdagi rolini aniqroq shaklda yo‘qqa chiqaradi: har ikkilasi stimul – reaksiya munosabatida to‘liq aks etgan. Reaksiya deb ataluvchi narsa faqat xulq atvor bilan namoyon qilinadi hamda aniqlash va tavsif mohiyatidan mosuvodir. Ushbu fikr va hissiyot tajribaning roliga e’tiborni jamlash borasida mazkur nuqtayi nazar umumlashtirilgan empirizmga yaqin; ammo uning hissiy bilish va aniqlashning rolini rad etish nuqtayi nazaridan u na’anaviy empirizmdan sezilarli farq qiladi. Alovida ta’kidlash kerakki, hissiyotlar bilish eshiklari emas deb ta’kidlab pragmatizm empirizm va ratsionalizm o‘rtasidagi bahsni ikkinchi darajali sohaga yanada ko‘proq joylashtiradi, bu bilan hissiy bilishning ahamiyatini rad etish sharti

⁵ Jon Duyi. Falsafa transformatsiyasi. – California: California University press 1916. – B. 46-47.

ostida empirizm va ratsionalizm tendensiyasidan “ustun kelish”ga urinishni namoyon qiladi. Shubhasiz, bu haqiqatan an’anaviy empirik nazariya doirasidan chiqib ketadi.

Dyuining shogirdi bo‘lgan Xu Shi pragmatizmning yuqorida tilga olingan maqsadini chuqur tushunadi va qaysidir darajada ushbu fikr yo‘nalishiga rioya qiladi. U osmon (tabiat) va inson (subyekt) munosabatlari nuqtayi nazardan an’anaviy falsafani tanqid ostiga olgan: “o‘zni ajratish va olamlarni bilmaslik, faoliyatsizlik bilan tabiatga bo‘ysunish deb hisoblash, donishmandlikni tashlab yuborish va o‘z kuchiga ishonmaslik – bu tabiatga qarshi borish va hech qachin tabiat nima ekanligini bilmaslikdir”⁶. “Tabiatga bo‘ysunish” deb atalgan narsa inson(subyekt)ning tabiat(obyekt) tomonidan chekhanishini anglatadi; “o‘z kuchiga ishonmaslik, tabiatga qarshi borish” insonning tabiatdagi roliga urg‘u beradi. Bu yerda gar subyekt va obyektning bilish sohasodagi umumiy bog‘liqligi haqida ketmoqda. Ma’lum ma’noda bilish jarayoni tavsif (nima qilinayotgani) va me’yorlar (borliqni boshqarish) birligi sifatida ifodalanadi. Agar tavsif “tabiatga bo‘ysunish” harakteriga ega deyilsa, qoidalar “o‘z kuchiga ishonish”ga ko‘proq bog‘liq. “Tabiatga bo‘ysunmaslik”, albatta, tabiat haqiqatini bilishning imkonsizligini bildiradi, ammo “o‘z kuchiga ishonish” (borliqni boshqarish) tashlab yuborilsa, obyektning dastlabkimohiyatiga chuqur kirib borishning imkoniy yo‘q. Shu sababdan Xu Shi “tabiatga bo‘ysunish”ning o‘zi “tabiat nima” degan masalani also hal qilmaydi deb o‘ylaydi, lekin “o‘z kuchiga ishonish”ni “tabiatga qarshi borish” bilan bog‘laydi hamda “o‘z kuchiga ishonish” bilan “tabiatga bo‘ysunish”ni ikki qarama-qarshi qutb deb qabul qiladi. Bu reallikni tushunish (borliqni boshqarish) modeli yordamida reallikdan mohiyatga o‘tish (borliqqa keltirish)ni tashlab yuboradi.

Xu Shining tabiiy fanlarga bergen izohida, ayniqla, “o‘z kuchiga ishonish” yordamida “tabiayga bo‘ysunish”ni rad etish tendensiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xu Shi nuqtayi nazariga ko‘ra, “tabiiy fanlar materiali tayyor materiallarni qidirish bilan chekhanmaydi”, u “tayyor materiallar bilan chekhanmaydi hamda ko‘rincha ko‘zga tashlanmaydigan va yangi natijalarga olib keladigan sahnalarni erkin tarzda yarata oladi”⁷. Oldinroq eslatib o‘tilganidek, ilmiy tushunish obyektiv ravishda dastlabki olamdan real olamga o‘tishni anglatadi, faktik olamga tayyor material sifatida qarash rostdan ham qiyin. Bunga ishora qilish, albatta, eksperimental fan tabiatni tushunishda muhim. Biroq, yanada muhimrog‘i dastlabki (tayyor) olamning faktik olamga aylanishi “tabiatga bo‘ysunish” jarayonining o‘zidir. Mabodo bu holat

⁶ Xu Shi. Xuaynan knyazi kitobi//Hu Shi asarlari to’plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B.51.

⁷ Xu Shi. Tadqiqot metodlari va materiallari//Hu Shining tanlangan asarlari to’plami. Uchinchi to’plam. 1-qism. Pekin. Beijing University press. 1969 . – B. 197.

e'tiborsiz qoldirilsa, tayyor materialdan "yangi natija"ga aylanish muqarrar ravishda subyektiv strukturaga aylanish shaklini oladi. Bilish sohasidagi ayni shu fakt asosan Xu Shi tasavvuridan tashqaridadir. U subyekt o'z xohishiga ko'ra yangi materiallar "yaratish"ga qodir deb ta'kidlaganida amalda bilim obyektiqa faqat predmetga oid tadqiqot faoliyati mahsuli sifatida qaragan Dyuining xatosini takrorlagan.

"O'zidan foydalanib" materiallar yaratish spekulyativ jarayonni ifodalamaydimi? Uning fikricha, bilishni inson xatti-harakatlardan ajratilgan faoliyat sifatida tushunish zararli eskirgan konsepsiya hisoblanadi: "O'tmish falsafasining og'riq joyi bilim va fikrga san'atni hayotdag'i xatti-harakatlarga aloqasiz o'ziga xos baho deb qarashdan iborat; shu bois o'tmish falsafasi "mohiyat", "fenomen", "subyektiv nigoh", "begona tana" va b. haqidagi bahslardan tashqariga chiqolmagan"⁸. U bilimlar va xatti-harakatlар o'rtasidagi uzilish – an'anaviy falsafaning kamchiligi deb hisoblagan va bu kundek ravshan. Qaysidir ma'noda bu bilimlar va xatti-harakatlarni birlashtirish talabini o'rnatuvchi rad etish shaklidir. Biroq Xu Shi xatti-harakatlarning bilimlardan uzilib qolishni "subyektiv qarash" va "begona obyekt" o'rtasidagi bahslar manbai hisoblagan, shuningdek, bu bahs "muammoga ega emas" deb bilgan. Qolaversa, boshqa tarkibiy qism ham mavjud: u bilimlar va xatti-harakatlardan aloqasini oldindan belgilash yordamida "subyektiv" va "begona" qarama-qarshiligidni bartaraf etish tendensiyasiga ega. Subyekt va obyekt o'rtasidagi qarama-qarshilikni yo'q qilish sharti sifatida bilim va harakat o'rtasidagi aloqa bilim va harakatning qo'shilib ketishi sifatid namoyon bo'ladi. Aynan su nuqtayi nazaridan Xu Shi quyidagilarni aniqlagan: "Tajriba – bu hayot, hayot – bu odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro muloqot"⁹. Ushbu bilimning xatti-harakatga va tajribaning obyekt kognitiv funksiyasiga singib ketishi yondashuvi umumiy jihatdan Dyui g'oyalariga mos keldi.

Ammo, Dyuidan farqli o'laroq, Xu Shi hissiyotlar va xatti-harakatlardan munosabati nuqtayi nazaridan tajribaning nokognitiv tabiatini isbotlamagan. Bilimlar va xatti-harakatlarning aralashib ketishi asosida Xu Shi bilimlar va xatti-harakat birligini muhim o'ringa qo'ygan. Shunga asoslanib Xu Shi Sun Yatsenning "anglashdan ko'ra bajarish osonroq" degan fikriga e'tiroz bildirgan: "Anglashdan ko'ra bajarish osonroq" degan garning asosiy xatosi "bilimlar" va "xatti-harakatlarning" o'ta aniq chegaralanishidir... negaki, bilimlarning katta qismini "xatti-harakatlar"dan ajratish imkonsiz, ayniqsa, ijtimoiy fanlar bilimlarini.

Ushbu bilimlarning katta qismi faktik tajribaga asoslangan: kam bilsang – kam ish qilasan, kam ish qilsang – ko'proq bilasan. Qancha ko'r ish qilsang, shuncha

⁸ Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlar to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B. 449.

⁹ Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlar to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B. 449.

ko‘proq bilasan va qancha ko‘proq bilsang, shuncha ko‘r ish qilasan, faqat shundagina bilish bo‘ladi”¹⁰. “Anglashdan ko‘ra qilish osonroq” degan fikrga ziyon bilim va xatti-harakatning bo‘linishidan iborat degan qarash – bu mulohaza mavzusidir. Ta’kidlash joizki, bir tomondan, Xu Shi xatti-harakatni tajriba (bilim) sifatida baholagan. Ayni damda, u bilimlar va xatti-harakat birligi aloqasini bilim va xatti-harakatning o‘zaro aloqasi sifatida hamda bilvosita birlik sifatida tushuna boshlagan. Bu ma’lum ma’noda bilimlarning nisbiy mustaqilligi – bilimlarning kognitiv mazmunini e’tirof etish, shunday qilib, pragmatizmdan boshqacha fikrlash tendensiyasining o‘ziga xos namoyishidir. Yuqorida keltirilgan bilim va amalga oshirish o‘rtasidagi munosabatlarning ikki qoidasida pragmatizmdan voz kechishning daxlsiz imkoniyati mavjud.

Bilimlar va xatti-harakatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa nuqtayi nazaridan bilimlar jarayon hisoblanadi: Xu Shi “kam bilsang – kam ish qilasan, ka mish qilsang – ko‘proq bilasan” deb ta’kidlaganida mazkur g‘oyada umumiyligini qiyofa ochib berilgan. Bilimlar jarayon sifatida o‘zining nisbiy va o‘zgaruvchan xususiyatlariga ega: “nafaqat tur o‘zgaradi, haqiqat ham o‘zgaradi”, “olamda abadiy haqiqat yo‘q, mutlaq haqiqat ham yo‘q”¹¹. Mantiqiy nuqtayi nazardan ushbu dalil pragmatizm amalda subyektning yaratilish jarayonida shakllanadi degan taxminga asoslangan: bilish (haqiqat) jarayoni ma’lum ma’noda insoniy lashishning real jarayoni davomi hisoblanadi. Aynan shu aloqa Xu Shining bilimni haqiqat “istalgan vaqtida o‘zgaradi” kabi mavhum fikrlarda namoyon bo‘ladigan jarayon sifatida baholashiga ma’lum relyavistik xususiyat bag‘ishlaydi. Bu jihatni Xu Shining “dao”ni tanqid qilishida ham ko‘rish qiyin emas. Xu Shi fikricha: “Falsafa tarixida dao konsepsiysi ko‘rko‘rona ishonchdan ajralish funksiyasiga ega, lekin oxir-oqibatda u fan taraqqiyotiga to‘sinqilik qilishi mumkin. “Dao” hammaga ma’lum va hech kim butun mavjudotlarning “li”(prinsip)ini bilishga intilmaydi, bu ulkan musibatdir”¹². Umuman olganda, ilmiy tushunish umumiyligini qonunlarga rioya qilishdan ajralmasdir, biroq u shunchaki qonunda ko‘zda tutilgan umumiyligini izohga asoslanishi mumkin emas va aniq ilmiy tadqiqotlarni mazkur talqin bilan almashtirish imkonsiz. Agar aniq ilmiy tadqiqotlarga e’tiborsiz qaralsa, bu muqarrar ravishda dogmatizmga olib boradi.

Aslida, an’anaviy xitoy madaniyatida qaysidir darajada ushbu tendensiya mavjud. Masalan, in va yan konsepsiysi xitoy falsafasida chuqr ildiz otgan konsepsiya sanaladi. U haqiqatan olamni dialektik o‘rganishda muhim rol o‘ynagan.

¹⁰ Xu Shi. Anglash qiyin, qilish oson emas // Zamonaviy xitoy tafakkuri tarixi to’plami. 3-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969-1983. – B.144.

¹¹ Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlari to’plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – P.415.

¹² Xu Shi Xuaynan knyazi kitobi//Hu Shi asarlari to’plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B.21.

Ammo ayrim faylasuflar, xatto olimlarda u ko‘rincha mavhum talqin modeli sifatida qo‘llaniladi. Elektr nima? Javob: “In va Yan elektrni yuzaga keltirgan holda qo‘zg‘aladi”. Magnit nega temirni tortadi? Javob: “In va Yan bir-birini tortadi, birxillik esa itaradi”. Nega rorox rortlaydi? Javob: “In va Yan o‘zaro tirkish qoldirmay to‘qnashadi” va hokazo, va hokazolar. Ushbu izohlar odamlarga o‘ziga xos haqiqatnamo mammuniyatni taqdim etishi mumkin, xolos. U nafaqt obyektning ichki mexanizmini va uning o‘zaro aloqasini ochib bermaydi, balki odamlarni tabiatlarni o‘rganishda davom etishdan voz kechishga majburlaydi, bu bilan dogmatizmning maxsus shakli namoyon bo‘ladi. Shu sabadan Xu Shining haqiqat o‘zgaruvchanligi haqidagi nuqtayi nazari turg‘un daoda to‘xtalish va butun mavjudotlar prinsiplarni qidirishdan voz kecishga qarshi turadi, bu – eng muhim nuqta. Biroq Xu Shining Dao konsepsiysi fan taraqqiyotiga to‘sinqilik qilishi haqidagi fikri ma’lum ma’noda bilish jarayonida universal nazariyaning me’yoriy rolini e’tiborsiz qoldirgan, oxirgisi esa yaqqol pragmatizm alomatiga ega.

Xu Shining nazariy ishlanmalari o‘tgan davrlarda nazariy bilimlar, jumladan, falsafaning tuzilishi haqidagi g‘arb g‘oyalarini Xitoy madaniy an‘analariga singdirishga qaratilgan uzoq muddatli sa’y-harakatlarning davomi edi. Ammo agar ilgari faqat G‘arb missionerlari bunday integratsiyadan manfaatdor bo‘lgan bo‘lsa, XX asr bosqlarida ta’lim tizimini isloh qilishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli islohot Xitoyda G‘arb bilimlari va infratuzilmasini idrok etishga olib keldi. Uning toifalari Xitoy xalqi uchun dolzarb vazifadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

G‘arb madaniyati uchun asos bo‘lgan falsafa tushunchasi Xu Shining keksa zamondoshlari tufayli Xitoyda o‘zlashtirila boshladi. Ammo ikkinchisi ushbu hodisaning universalligi, uning ijtimoiy zarurligi g‘oyasini o‘rnatishga yordam berdi va Xitoy madaniyatiga tadqiqotning tarixiyligi va bilimlarning ilmiy tabiatini uchun G‘arb mezonlarini keltirdi. Instrumentalizm qonun-qoidalariga sinchkovlik bilan amal qilishga, ularni ommalashtirish ishlarida izchillik bilan ochib berishga harakat qilgan Xu Shi bir vaqtning o‘zida o‘zi tarbiyalangan intelektual an‘anaga xos bo‘lgan nazariy tafakkurning ba’zi fazilatlarini namoyon etdi. Aftidan, Xu Shi tomonidan eng qat’iy targ‘ib qilingan nazariy tezislarning prognozi G‘arb pragmatizmi tushunchalari va an‘anaviy Konfutsiy paradigmasi o‘rtasidagi madaniy va psixologik parallellikni aniqlashga imkon beradi. Asosan qiymat yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladigan bu parallelliklar XX asr bosqlarida Xitoyda instrumentalistik falsafani targ‘ib qilish muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishi mumkin edi. Birinchidan, inson mavjudligining

muayyan muammolarini hal qilishga pragmatik urg‘u Xitoy tafakkurining an’anaviy "antropologik" yo‘nalishini aks ettirdi. Ikkinchidan, ikkala falsafa ham ijtimoiy va axloqiy konstruktsiyalarga e’tibor qaratgan. Uchinchidan, ular teng darajada universalistik gumanistik patos bilan ajralib turardi va pragmatizm tomonidan inson tajribasini yaxlit ko‘rish Xitoy klassik falsafasining organik xususiyatiga mos keladi. To‘rtinchidan, shuni ham hisobga olish kerakki, pragmatizm falsafa va fan o‘rtasidagi an’anaviy tafakkurda mavjud bo‘lmanan chegarani yo‘q qildi, G‘arb madaniy merosi kalitini izlash bilan band bo‘lgan xitoylik kitobxonlar ommasini ma’lum bir umumlashtirilgan paradigma bilan ta’minladi. G‘arb bilimlari, bundan tashqari Xu Shining ommalashtirish sa’y-harakatlari bilan imkon qadar soddalashtirilgan. Shu bilan birga, o‘sha davrda Xitoy uchun innovatsion tadqiqot metodologiyasidan foydalanish Xu Shiga milliy falsafiy an'analar tarixi muammolariga mahalliy madaniyat uchun g‘ayrioddiy nuqtai nazaridan qarash imkonini berdi. U o‘zining tarixiy-falsafiy tadqiqotlarini nafaqat Xitoy zaminida G‘arb “ilmiy metodi”ni moslashtirish hamda xitoyliklarning o‘z tarixi va uning istiqbollarini yaxshiroq tushunish nuqtai nazaridan emas, balki Xitoy madaniyatining yanada rivojlanishiga qo‘sghan hissasi deb hisobladi. Umuman olganda, Xu Shi tomonidan e’lon qilingan tarixiy va falsafiy tadqiqot usullari G‘arbda umume’tirof etilgan manbalarni tanlash va tahlil qilish tamoyillarini oddiygina ifodalaydi. Ammo u bu tamoyillarni iloji boricha mahalliy tarixiy va falsafiy materialga tatbiq etishga intildi, bu esa u targ‘ib qilgan dunyoqarash tamoyillarining hayotiyligini va tadqiqot yondashuvlari samaradorligini ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qildi.

Jon Dyui va Xu Shi falsafasining umumiyligi jihatlaridan biri bu ta’lim falsafasi hisoblanadi. Bunda Xu Shi Dyui falsafasining tajriba va amaliyot metodlarini o‘zining falsafasida jamlashtiradi. Shuni aytib o‘tish joizki Dyuining izidan Xu Shi qilgan ishlari besamar ketmadi.

REFERENCES

1. Dewey. J. Essays in Experimental Logic. – California: Good Press. 1916. – P. 36.
2. Dewey. J. Essays in Experimental Logic. – California: Good Press. 1916. – P. 331.
3. Pierce.C.S. Selected Writings: Values in A Universe of Chance. Mass market paperback 1 january 1958. – P.120-121.
4. Dewey. J., Moore. A.W. et al. Creative Intelligence: Essays in the Pragmatic Attitude California. California University Press 1917. – P.7.

5. Jon Dyui. Falsafa transformatsiyasi. – California: California University press 1916. – B. 46-47.
6. Xu Shi. Xuaynan knyazi kitobi//Hu Shi asarlari to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B.51.
7. Xu Shi. Tadqiqot metodlari va materiallari//Hu Shining tanlangan asarlari to'plami. Uchinchi to'plam. 1-qism. Pekin. Beijing University press. 1969 . – B. 197.
8. Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlar to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B. 449.
9. Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlar to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B. 449.
10. Xu Shi. Anglash qiyin, qilish oson emas // Zamonaviy xitoy tafakkuri tarixi to'plami. 3-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969-1983. – B.144.
11. Xu Shi. Eksperimentalizm//Hu Shi asarlar to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – P.415.
12. Xu Shi Xuaynan knyazi kitobi//Hu Shi asarlari to'plami. 2-qism. – Pekin: Beijing University press. 1969. – B.21.
13. Sulaymonov, Z. B. (2021). XITOY FALSAFIY TAFAKKURIDA PRAGMATIZM OQIMINING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 421-426.
14. O'G'Li, Sulaymonov Zufarali Baxtiyor. "XITOY PRAGMATIZM FALSAFASIDA TRANSSENDENT DAOSIZM MUAMMOSINI HAL QILISH." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11 (2021): 1090-1094.
15. O'G'Li, Sulaymonov Zufarali Baxtiyor. "HU SHINING IJODIY FAOLIYATINING ASOSIY BOSQICHLARI VA FALSAFIY QARASHLARINING SHAKLLANISHI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.2 (2021): 5-11.
16. Sulaymonov, J. B. (2021). XITOY BUDDAVIYLIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH MUAMMOLARINING QO 'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 572-579.